



KICHIK BIZNES UCHUN BUXGALTERIYA HISOBI STANDARTLARINI SODDALASHTIRISH MUAMMOLARI

Ergashev Olloyor Furqat og'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali assistenti

eolloyor@mail.ru

Bahronova Farangiz Nafas qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Samarqand filiali talabasi

baxronovafarangiz374@gmail.com

***Annotatsiya:** ushbu maqolada kichik biznes uchun buxgalteriya hisobi standartlarini soddalashtirish muammolarini atroflicha ko'rib chiqamiz va bu muammolarni oldini olish yo'llari bo'yicha qisqacha to'xtalib o'tamiz.*

***Kalit so'zlar:** kichik biznes, soddalashtirilgan hisob-kitob, hisob-kitobda avtomatlashtirish, soliq majburiyatlari*

O'zbekistonda kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini soddalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar bir necha yildan beri joriy qilib kelinmoqda. Ushbu yo'nalishdagi ijobiy natijalarga erishilib o'z samarasini ko'rsatmoqda. O'zbekistondagi bu ijobiy o'zgarishlar kichik biznesning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga, ularning yuridik va buxgalteriya masalalarida yanada samarali faoliyat yuritishiga imkon yaratmoqda. Hozirda, kichik biznes sub'ektlari uchun soddalashtirilgan tizimlar nafaqat soliqlarni to'lashda, balki umumiy ish yuritishda ham ko'plab qulayliklar yaratmoqda. Misol tariqasida quydagi malumotni keltirib o'tishimiz mumkin: Soddalashtirilgan hisobot tizimi-2020 yilda O'zbekistonda kichik biznes va mikro korxonalar uchun soddalashtirilgan buxgalteriya hisob tizimi joriy etildi. Bu esa kompaniyalar murakkab buxgalteriya hisobi me'yorlaridan qochib, o'z ish o'rinlarini osonroq yurita olishga imkon yaratib berdi. Bundan tashqari elektron hisobot tizimlari, O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi tomonidan qo'llab-quvvatlashlar, o'zgarishlar va



yangiliklar haqida muntazam xabarnomalarning tadbiiq etilishi o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sektorini rivojlantirish uchun buxgalteriya tizimini soddalashtirilgandan so'ng yanda ijobiy natijalar va foydalar keltirishi mumkin bular: Soddalashtirilgan buxgalteriya hisobi kichik bizneslar uchun moliyaviy boshqaruvni osonlashtiradi va shu orqali ularga o'z faoliyatlarini kengaytirishga imkon yaratadi. Soddalashtirilgan standartlar kichik biznes egalariga kompleks buxgalteriya tizimlarini o'rnatish o'rniga, aniq va tushunarli sodda hisob-kitoblarni yuritishga yordam beradi. Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini soddalashtirish O'zbekistonda ko'plab yangiliklarga olib kelsa-da, bu jarayon bir nechta muammolarni ham yuzaga keltirayotganini amaliyotda ko'rishimiz mumkin.

-Normativ-huquqiy baza yetarli emasligi. Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini soddalashtirishga qaratilgan normativ hujjatlar va me'yoriy asoslar to'liq va aniq bo'lmasligi mumkin. Ba'zan, yangi qoidalarning ko'pligi va murakkabligi kichik tadbirkorlarga tushunarsiz bo'lib qoladi, bu esa amaliyotda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi va kutilgan natijaga erishila olmaydi.

Buxgalteriya tizimining murakkabligi va tushunarsizligi. Buxgalteriya hisobini soddalashtirishga qaratilgan yangiliklar ko'pincha murakkab hisoblash tizimlarini joriy etishga olib keladi. Masalan, soliq hisobotlarini oddiylashtirish uchun yangi formatlar, stavkalar va metodologiyalar uslublar joriy qilinsa, kichik biznesning ba'zi vakillari ularni to'liq tushunmasligi yoki ulardan samarali foydalanmasligi mumkin.

-Texnologik yondashuvga moslashuv muammolari. Elektron tizimlarga o'tish kichik biznes uchun qo'shimcha texnologik va moliyaviy xarajatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Buxgalteriya hisobi uchun yangi elektron platformalarni o'rganish va ulardan foydalanish kichik tadbirkorlarga, ayniqsa texnologik salohiyatni rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ba'zi kichik biznes vakillari texnologiya bilan



bog'liq muammolarga (masalan, internet aloqasi yoki dasturiy ta'minotning mosligi) duch kelishlari mumkin.

-Soliq va boshqa majburiyatlarning o'zgarishi. Kichik biznesning buxgalteriya hisobini soddalashtirish jarayonida soliq va boshqa moliyaviy majburiyatlarning tez-tez o'zgarishi, buxgalterlar va tadbirkorlar uchun qiyinchiliklar yaratadi. Soliq qonunchiligidagi o'zgarishlar va yangilanishlarni tezda amalga oshirish zarurati ko'pincha xatoliklar yoki kechikishlarga olib kelishi mumkin. Bu esa korxonalar uchun moliyaviy barqarorlikni taminlay olmasligiga olib keladi.

-Soddalashtirilgan tizimlar va amaliyotlar o'rtasidagi nomuvofiqlik. Soddalashtirilgan buxgalteriya tizimlari kichik biznesni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa-da, ba'zi hollarda ular o'rtacha yoki katta bizneslar uchun moslashgan tizimlar bilan muammoli bo'lishi mumkin. Kichik korxonalar uchun yaratilgan soddalashtirilgan hisobotlar va soliq to'lovlari tizimlari ba'zan shaffoflikni ta'minlashda yoki yirik va o'rta bizneslar bilan raqobatlashishda qiyinchiliklar yaratadi.

Kichik biznes uchun buxgalteriya hisobini soddalashtirishda bir qator ijobiy o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, yuqorida qayd etilgan muammolar hali ham o'z yechimini kutmoqda. Bizning fikrimizcha O'zbekistonda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va ularning buxgalteriya tizimini soddalashtirishni davom ettirish uchun yanada kengroq normativ-huquqiy va amaliy asoslarni ishlab chiqarsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Buxgalteriya tizimini soddalashtirish va optimallashtirish: Buxgalteriya tizimining murakkabligi bilan kurashish uchun kichik biznesga moslashtirilgan soddalashtirilgan hisob-kitob metodologiyalarini joriy etish lozim. Masalan yagona soliq stavkalari yoki yagona hisoblash tizimi bo'yicha me'yorlar ishlab chiqilishi mumkin. Bu hisoblarni soddalashtirish orqali biznesning operatsion xarajatlari kamayishga yordam beradi. Texnologik yondoshuvlar uchun: Kichik biznes vakillariga texnologiyalardan samarali foydalannish uchun zarur texnik yordam va o'quv dasturlarini taqdim etish. Yangi buxgalteriya platformalari va tizimlar bilan ishlash uchun o'uv materiallari va amaliy



kurslarni tashkil etish lozim. Soliq majburiyatlari bo'yicha kichik biznes subyektlari uchun kansalting xizmatlarini davomliy tartibda yo'lga qo'yish. Bu o'z navbatida, kichik biznesning yanada samarali faoliyat yuritishiga yordam beradi degan fikirdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

"Kichik biznesni rivojlantirish va soddalashtirish" (Abdurashidov Sh. 2019)
Nashr: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi

"O'zbekistonda kichik biznes va soliq tizimini soddalashtirish"(Qodirov T.va Yusupov R. 2020) Nashr:Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

"Buxgalteriya hisobi va kichik biznesda soliq tizimini soddalashtirish"(Toshpo'latov A. 2021) Nashr: O'zbekiston Milliy Universiteti

"Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va soddalashtirish: muammolar va yechimlar"
(O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy tadqiqotlar markazi. 2020)

"Kichik biznes va uning buxgalteriya hisobini soddalashtirish"(Yunusova G. 2018)
Nashr:Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy Tadqiqotlar Markazi
Sayt: www.cer.uz

O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi
Sayt: www.soliq.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va qonunchilik portal
Sayt: www.lex.uz